

create an environment that fosters sustainable growth, attracts investment, and enhances the overall reputation of its corporate sector.

References

[1] Sayyar, H., Basiruddin, R., Rasid, S. & Elhabib, M., "The impact of audit quality on firm performance: Evidence from Malaysia. International of Management research, vol. 45, no. 2, pp. 34-4, 2013.

[2] Klein, A. (2002). Audit committee, board of director characteristics, and earnings management. Journal of Accounting & Economics, 33(3), 375–400. [https://doi.org/10.1016/S0165-4101\(02\)00059-9](https://doi.org/10.1016/S0165-4101(02)00059-9)

[3] Baber, W. R., Kang, S.-H., & Kumar, K. R. (1999). The explanatory power of earnings levels vs. earnings changes in the context of executive compensation. The Accounting Review, 74(4), 459–472. <https://doi.org/10.2308/accr.1999.74.4.459>

[4] Dechow, P. M., Kothari, S. P., & Watts, R. L. (1998). The relation between earnings and cash flows. Journal of Accounting and Economics, 25(2), 133–168. [https://doi.org/10.1016/S0165-4101\(98\)00020-2](https://doi.org/10.1016/S0165-4101(98)00020-2)

[5] Martin, J., & Kloot, L. (2001). Local government accountability: Explaining differences. Accounting, Accountability & Performance, 7(1), 51–72. Retrieved from <https://researchbank.swinburne.edu.au/file/65be2558-b6b1481cbf119fd6c463327b/1/PDF%20%28Published%20version%29.pdf>

QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV

Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich
Andijon mashinasozlik instituti, doktorant

Abstract

Maqolada korporativ boshqaruv boyicha bir qator mahalliy va chet el tarjibalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ, korporatsiya, omil, iqtisodiyot.

Xozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining salohiyatini o‘rganish, kuzatilayotgan mavjud muammo, kamchilik va sohadagi to‘siqlarni tahlil qilish hozirgi kunda o‘ta muhim masala hisoblanadi. Yurtimiz shahar hamda qishloqlarida qurilish va rekonstruktsiya ishlari tobora ko‘payib bormoqda, bu shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarayotgan materiallarni sifatiga e‘tibor qaratish muhim bo‘lib qolmoqda.

Amaliyotda korporativ boshqaruv toifalarini uning mohiyati nuqtai nazaridan ham, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidagi aniq o‘rni va roli nuqtai nazaridan ham kengaytirib talqin qilish ommaviylashgan. Bu holatda muayyan ko‘p qatlamli, ko‘p funktsionalli hodisa mavjud bo‘lib, uni birgina «korporativ boshqaruv» atamasi bilangina ta’riflash mumkin emas[1].

Rivojlangan mamlakatlarda sanoat korporativ tuzilmalarni boshqarish tizimi quyidagi ko‘rinishlarga ega:

- yakuniy mahsulot bo'yicha vertikal integratsiya qilingan bo'linmalar va divizionlarga ega 100-200 ta yirik korporatsiyalarning mavjudligi;

- ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi (funktional majmua bo'yicha o'z ishlarining hajmi 80-90% va to'liq funksional yakuniy mahsulotning keng assortimenti);

- rivojlangan ichki korporativ dasturiy (maqsadli) va joriy (tezkor) rejalashtirish;

- korporatsiyada yuqori texnologiyalarning etarli miqdori (5 va undan ortiq);

- korporatsiyalararo aloqalar bo'yicha ishlab chiqarishning kichik hajmlari (ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 10—15 % tashkil etuvchi)[2].

Respublikamiz qurilish korxonasi va tashkilotlari rahbarlari faoliyatining asosiy mezonini korporativ boshqaruvdir. Buning dolzarbligi shundaki, uzoq muddatga korxonaning raqobatbardoshligini saqlab qolish zarurati bilan belgilanadi. Raqobat, axborot texnologiyalari, biznesning globalashuvi va boshqa ko'plab korporativ boshqaruvni takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. O'zbekiston qurilish korxonalarining ishbilarmonlik muhitidagi juda tez o'zgarishlar aynan korporativ boshqaruvning ahamiyatini oshirishga olib keladi.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarini korporativ boshqaruvni ishlab chiqishda ta'sir qiluvchi quyidagi ayrim omillarni xal qilinishida kerak bo'ladigan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

- qanday faoliyatga o'zgartirish kerak;

- qanday faoliyatni davom ettirish yoki vaqtincha to'xtatish kerak;

- qaysi faoliyat sohasini davom ettirish kerak.

Shunday qilib, korxonalarda korporativ boshqaruv quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratishi lozim:

- korxonani nima qiladi va nima qilmaydi;

- korxonada amalga oshiriladigan tadbirlarda eng muhimi nima.

Yuroridagi keltirib o'tilgan asosiy takliflarni qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonasi va tashkilotlari o'zining faoliyatida to'la o'rganib chiqsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishining 2015 yil 31 dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv kodeksi" ham yuqoridagi omillarni hal qilishda juda kerak hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv strategiyaga muvofiq, ko'pincha kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, dasturlari, loyihalari va korxonalarini to'g'risida qaror qabul qilish kerak: ulardan qaysi birini tanlash kerak, ular qanday amalga oshirilishi va nazorat qilinishi kerak. Kompaniya qaysi biznesga kiradi yoki kirmaydi? Kompaniya qaysi loyihalarga sarmoya kiritishi kerak? Turli xil biznes bo'linmalari qanday qilib bir-birini to'ldiradi, ularni qanday qilib birlashtirish kerak? Xatarlarni diversifikatsiya qilish orqali qanday kamaytirish kerak? Qanday qilib daromadlarni optimallashtirish kerak? Shunday savollarni qo'yib ishlash, bu korxonani ishlab chiqarish faoliyatini yanada rivojlantirishga sabab bo'ladi.

Bugunda Yaponiya sanoat majmuasi ma'lum umumiy tamoyillar bo'yicha tashkil etilgan oltita teng kattalikdagi iqtisodiy majmualar - korporatsiyalar (yaponcha variant - syudanlar)dan iborat: «Mitsubishi», «Mitsui», «Sumitomo», «Daishi

Kangin», «Fue», «Sanwa». Syudanlar ma'lum umumiy tamoyillar bo'yicha tuzilgan universal ko'p tarmoqli iqtisodiy majmualardir. Tashkiliy tuzilmaga xalq ho'jaligi barcha sohalarining to'liq spektridan iborat moliyaviy muassasalar (banklar, sug'urta va trast kompaniyalari), savdo firmalari, hamda ishlab chiqarish korporatsiyalari to'plami kiradi. Barcha syudanalarda kompaniyalar bir birining kapitallarida o'zaro ishtirok etadi va bank guruhdan yetakchi rolni bajaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, korporativ boshqaruvni hozirgi kunda mahallaiy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalariga keng joriy qilish kerak bo'lib qolmoqda, bunday jamoaviy uyushgan korxonalarni (korporatsiya) ko'payishi qurilish sanoatini yanada rivojlantirib, raqobatbardosh mahsulotlarni sonini hamda sifatni ortishi olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korporativ boshqaruv: o'quv qo'llanma/B.Xodiyev, D.Qosimova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

2.. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия: Пер. с англ. - СПб., Питер, 1999.

DAVLAT KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Alimova Dilafruz

Gulistan State University

Ph.D, Department of Economics

dilafruzxasanovaalimova@gmail.com

Abdusalim Shavkatov

Researcher of Master's Degree, Department of World Economics

Tashkent state university of economics

a.shavkatov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlat korxonalarida (DK) samarali korporativ boshqaruvning iqtisodiy rivojlanish va muhim davlat xizmatlarini taqdim etishdagi ahamiyati muhokama qilinadi. U korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun bir qancha strategiyalarni taklif qiladi. Ushbu chora-tadbirlar davlat korxonalari faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Key words: SOEs, corporate governance, stakeholders, management, enterprises, risk.

While the process of globalization is taking place, organizational value cannot be increased without taking into account the interests of shareholders, employees, and business partners. However, these interests might clash, leading to internal conflicts that could negatively impact on entity's performance. In order to avoid such